

ТҮЛӨВ ЖАДВАЛИ

Шоғиркон туман ХТБ ва "IZZAT ZIYO AKFA SERVIS" МЧЖ
 билан 625523600 умумий суммасидаги
 2022 й. "8" Июльдаги 265-2-41-Х/Т/2022-сон шартномага

Булим 7092 БОБ 100 Параграф 075

(сүмда)

2022 й. ойлар номи	Харажатлар тури			Жами
	43-54-990			
Январ				
Феврал				
Март				
Апрел				
Май				
Июн				
Июл	625523600			625523600
Август				
Сентябр				
Октябр				
Ноябр				
Декабр				
Жами ийил бўйича	625523600			625523600

Жами; 625523600 (Олти юз йигирма беш миллион беш юз йигирма уч минг олти юз) сум

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 187657080 сум ёки шатртноманинг олдиндан 30% 2022 йил июль ойида тўланиши лозим



Раҳбар

Бош ҳисобчи

Р.Атоев
(имзо)

P.Атоев

A.Очилов
(имзо)

Газначилик бўлинмаси
ходими қабул қилди
2022 й. «___» _____
(имзо)

Бюджетдан маблағ олувчи
ходими қабул қилди
2022 й. «___» _____
(имзо)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA YURIDIK XULOSA**

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi. Pudrat shartnoma.

Shofirkon tuman Xalq ta’limi bo‘limi va “IZZAT ZIYO AKFA SERVIS” mas’uliyati cheklangan jamiyati o‘rtasida 625523600 (Olti yuz yigirma besh million besh yuz yigirmauch ming olti yuz) so‘mlik Shofirkon tuman Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 14 ta (9;54;21;33;8;30;52;20;51;7;13;38;2;39) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kuzatuv kameralarini o‘rnatish ishlarini bajarish bo‘yicha shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

Shofirkon tuman Xalq ta’limi bo‘limi tomonidan loyiha markazga 2022-yil 7-iyul sanasida ishlab chiqilgan, 2022-yil 7-iyul yuridik xulosa uchun yuborilgan, 2022-yil 7-iyul sanasida loyiha markazning mas’ul xodimiga biriktirilgan.

Loyiha Shofirkon tuman Xalq ta’limi bo‘limi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlari asosida ko‘rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



B.Safarov

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «8» 7

265-2-41-XT/2022-son

Shofirkon tumani.

“IZZAT ZIYO AKFA SERVIS” mas’uliyati cheklangan jamiyati keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiluvchi o‘zining ustavi asosida ish yurituvchi rahbari N.U.Izzotulloev timsolida bir tomondan va Shofirkon tuman Xalq ta’limi bo‘limi keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yurituvchi, o‘zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari R.Atoyev timsolida ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdila

1. ShARTNOMANING PREDMETI.

1.1.Ushbu shartnoma bo‘yicha “Pudratchi” “Buyurtmachi”ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha-smeta hujjatlariga asosan Shofirkon tuman Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 14 ta (9;54;21;33;8;30;52;20;51;7;13;38;2;39) umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida kuzatuv kameralarini o‘rnatish ishlarni bajarishni, “Buyurtmachi” “Pudratchi” tomonidan loyiha smeta bo‘yicha bajargan ishlarni dalolatnoma asosida qabul qilib olishni hamda to‘lovnini o‘z vaqtida amalga oshirishni o‘z zimmalariga oladilar.

1.2.Ushbu shartnomaning umumiy summasi QQS bilan **625523600 (Olti yuz yigirma besh million besh yuz yigirmauch ming olti yuz)** so‘mni tashkil etadi.

2. ShARTNOMA NARXI VA BAJARISH MUDDATI.

2.1.“Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan ta’mirlash ishlarning qiymati QQS bilan **625523600 (Olti yuz yigirma besh million besh yuz yigirmauch ming olti yuz)** so‘mni tashkil qiladi.

2.2. O‘rnatish ishlarning boshlanishi “13-iyul” 2022-yil.

2.3. O‘rnatish ishlarning tugashi vaqtি “13-avgust” 2022-yil.

3. TA’MIRLASH ISHLARINI BAJARISH VA QABUL QILIB OLISH.

3.1. O‘rnatish ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko‘rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. “Buyurtmachi” tomonidan o‘rnatish ishlarini bajarish davrida “Pudratchi”ga o‘zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. O‘rnatish ishlari to‘xtab qolganligi uchun sababchi bo‘lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

3.5. O‘rnatish ishlarini tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so‘ng ta’mirlash ishlari tamom bo‘lgan deb hisoblanadi.

4. TO‘LOV ShARTI VA TARTIBI

4.1.Ushbu shartnomaning umumiy narxi QQS bilan **625523600 (Olti yuz yigirma besh million besh yuz yigirmauch ming olti yuz)** so‘mni tashkil etadi.

“Buyurtmachi” o‘rnatish ishlari uchun “Pudratchi”ga shartnoma narxining 30 % oldindan to‘lov (avans)ni shartnoma imzolanganidan keyin 15 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi. “Buyurtmachi” tomonidan yakuniy 70 % to‘lov “Pudratchi” ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilingandan so‘ng 30 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.

4.2. “Buyurtmachi” to‘lovn ni pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiradi.

4.3. “Pudrat” tashkiloti tomonidan shartnomada ko‘rsatilgan summadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun “Buyurtmachi” tomonidan to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

5. PUDRATCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. Pudratchi maxsus o‘rnatish ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega.

5.2. Pudratchi Buyurtmachidan bajarilgan xizmat uchun haqni shartnomaning 4.1-bandiga asosan kelishilgan vaqtida va miqdorda to‘lanishini talab qilish huquqiga ega.

5.3. Shartnoma bahosi QQS bilan **625523600** (Olti yuz yigirma besh million besh yuz yigirmauch ming olti yuz) so‘m bo‘lgan o‘rnatish ishlarini shartnomaning 2.3 bandida ko‘rsatilgan muddatda bajarish va o‘z vaqtida sifatlari qilib topshirish.

5.4. Buyurtmachini pudrat shartnomasi tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to‘g‘risida xabardor qilish.

5.5. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag‘ doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to‘g‘risida dalolatnomani tuzadi.

5.6. Qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o‘tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo‘yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta’minlaydi;

- mazkur shartnoma bo‘yicha ob‘ektni foydalanishga qabul qilib olish to‘g‘risidagi dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o‘ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo‘shatish;

- qurilish maydoni qo‘riqlanishini ta’minlash;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

6. BUYURTMAChINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1 “Buyurtmachi” “Pudratchi”dan o‘rnatish ishlarini o‘z vaqtida hamda belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan topshirishini talab qilish huquqiga ega.

6.2 “Buyurtmachi” tasdiqlangan smetasiga muvofiq budgetda nazarda tutilgan mablag‘ doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq dalolatnomani “Pudratchi” bilan birgalikda tuzadi.

6.3 Ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlaydi.

6.4. Sifatsiz xizmat ko'rsatilganda "Buyurtmachi" xizmatni qabul qilib olishdan voz kechishi va kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'ritsida 5 kun ichida pudratchini yozma ravishda xabardor qiladi.

7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

7.1.Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon, ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi

7.2. Buyurtmachi Pudratchiga bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

7.3. Pudratchi talabiga binoan qo'yilgan akkreditiv u amal qiladigan muddat ichida foydalanilmasa, Pudratchi Buyurtmachiga akkreditivning foydalanilmagan summasining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

7.4. Pudratchi majbuiyatlarni o'z vaqtida bajarmagan taqdirda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar narxining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmanan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

7.6. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi

8. KORRUPSIYAGA QARShI KURASHISH SHARTLARI.

8.1 Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi

uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rilishiga kafolat beradi.

8.2 Agar shartnoma bo‘yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

8.3. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha shartlarga rioya etilmaganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to‘xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo‘ladi

9. FORS-MAJOR HOLATLARI.

9.1 Taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo‘lmagan holatlar (yengib bo‘lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

9.2 Vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo‘lmas kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

9.3 O‘z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo‘lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishiga ta’siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo‘lmas kuch holatlari uzluksiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo‘lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnomasi yuborish yo‘li bilan bekor qilinishi mumkin.

10. KELISHMOVChILIKLARNI HAL QILISH TARTIBI.


10.1 Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish bilan bog‘liq, tomonlar o‘rtasida kelib chiqadigan, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi nizolar taraflarning o‘zaro kelishuvi yoxud qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

11. ShARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

11.1. O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 122-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldaggi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budgeti mablag‘lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G‘aznachilikda ro‘yxatga olingan kundan qonuniy kuchga kiradi hamda 2022-yil 31-dekabrgacha amalda bo‘ladi.

11.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib har biri bir xil yuridikkuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan saqlanadi.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

«PUDRATCHI»	«BUYURTACHI»
<p>“ Izzat Ziyo Akfa Servis” MChJ</p> <p>Manzil: G'ijduvon tumani, G. Yunusov MFY Rabotipoyon</p> <p>Tel./faks 99-584-29-89</p> <p>x/v 20208000905040697001</p> <p>Bank nomi Mikrokredit bank G'ijduvon filiali</p> <p>MFO 00104</p> <p>OKONX 97600</p> <p>STIR 306086728</p> <p>Rahbar  N.U.Izzotulloyev</p>	<p>Shofirkon tuman XTB</p> <p>Shofirkon tumani, Shofirkon shahri M.Ashrafiy ko'chasi, 12-uy</p> <p>Tel./faks 502-21-51</p> <p>sh/h 401722860062587092100075012</p> <p>byudjetdan mablag‘ oluvchi STIRi 201113224 OKONX 97600</p> <p>G‘aznachilik bo‘linmasi nomi: Shofirkon tuman G‘aznachilik bo‘linmasi</p> <p>G‘azna h/v: 23402000300100001010</p> <p>Bankning nomi:Toshkent Markaziy bankning XKKM</p> <p>MFO: 00014</p> <p>G‘aznachilik bo‘linmasi STIRi: 201122919</p> <p>Rahbar _____ R.M.Atoyev</p>

